



Shexrozbek IBRAGIMOV,

Namangan muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti

E-mail: ibragimovshexrozbek@gmail.com

IMPULS tibbiyot instituti professori, f.f.d N.Otajonov taqrizi asosida

LEXICAL CHARACTERISTICS OF LITERAL STYLISTIC DEVICES

Аннотация

This article describes the lexical features of artistic image tools and their expression in translation. When the figurative means were analyzed in the works whose original language is English, and the translation is Uzbek, it was justified that they should be translated with an alternative lexicon rather than giving them exactly.

Key words: Stylistic device, lexical unit, metaphor, simile, exaggeration, translation, literal work.

ЛЕКСИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВИЗУАЛЬНЫХ СРЕДСТВ

Аннотация

В данной статье рассмотрены лексические особенности средств художественного изображения и их выражение в переводе. Когда были проанализированы образные средства в произведениях, языком оригинала которых является английский, а перевод – узбекский, было обосновано, что их следует переводить с альтернативной лексикой, а не давать их точно.

Ключевые слова: Образное средство, лексическая единица, метафора, аллегория, преувеличение, перевод, художественное произведение.

BADIIY TASVIRIY VOSITALARNING LEKSIK XUSUSIYATLARI

Аннотация

Mazkur maqolada badiiy tasvir vositalarning leksik xususiyatlariga va ularni tarjimadagi ifodasi bayon etilgan. Tasviriy vositalar aslyyat tili ingliz, tarjima esa o'zbek tili bo'lgan asarlarda tahlil qilinganda, ularni aynan o'zini berishdan ko'ra, muqobil leksika bilan tarjima qilinishi asoslandi.

Kalit so'zlar: Tasviriy vosita, leksik birlik, metafora, tashbeh, mubolag'a, tarjima, badiiy asar.

Kirish. Badiiy tasviriy vositalar har qanday nasriy va nazmiy asarlarga o'zining purma'noligi va serjiloligi bilan alohida badiiylilik kasb etadi. Shuning uchun shoir va yozuvchi "so'z san'atkor" deya ham ataladi, chunki ular asarlarda so'zlarni turli xil ma'nolarda qo'llash orqali o'quvchiga ma'naviy bilim berishga harakat qiladilar.

Badiiy adabiyotda shoir va yozuvchilar badiiy tasvir vositalardan keng foydalanishi bizga ma'lum. R.Qo'ng'urov tomonidan berilgan ta'rifga e'tibor qaratsak, "tasviriy so'zlar badiiy adabiyotda, o'g'zaki nutqda, folklorida juda ko'p ishlatilib, ular nutqqa badiiy bo'y, qo'q, ekspressivlik beradi" [13] degan fikrni aytganda haq edi. Shu sababli, adabiyotni tasviriy vositalarsiz tasavvur qilish qiyin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Badiiy san'atlar yuzasidan qilingan ilk asar albatta Aristotelning "Poetika"sidir. Keyingi yillarda qilingan ishlarga ana shu asar asos bo'lgan. Badiiy tasvir vositalari doimo ilmiy tadqiqotchilarning diqqat markazida. Xususan, jahon olimlari J.Serl, M.Blek, A.Ortoni, J.Lakoff, M.Jonson, J.Litlmor, J.Laura, J.R.Jones rus olimlari E.V.Fursova, O.V.Uarova, M.A.Yujannikova, Y.V.Ivanova, Y.V.Namichkina, L.Pey, I.M.Gabdulxakova, N.Golovko, M.A.Arutyunyan o'zbek olimlari R.Qo'ng'urov, E.Qilichev, A.Y.Boboniyozov, M.Mirtojiyev, O.V.Dibrova, D.M.Xoshimova, G.Y.Rofiyeva, G.S.Nasrullayeva, Sh.T.Maxmaraimova, G.K.Qobuljonova, E.E.Allanazarov, M.Karimov, X.M.Turaxonova kabilarning ishlarida badiiy tasvir vositalari turli: lingvistik, semantik, pragmatik, lingvokulturologik va boshqa yo'nalishlarda tadqiq qilingan. Tadqiqot ishlarida turli davrlarda yaratilgan asarlarni asosiy obyekt sifatida tanlagan va ularning tarjimalarini qiyosiy tahlilga tortgan. Shunday bo'lsa-da, Harold Lembnig "Bobur – Yo'lbars" romanida mavjud tasviriy vositalarning tarjimasi bilan o'zaro qiyosiy tadqiq qilingan emas.

Harold Lemb Amerika Qo'shma Shtatlarida tug'ilib, ijod qilgan tarixchi, dramaturg va romannavis sifatida mashhur. Yozuvchi sharq va g'arbda mashhur Aleksandr Makedonskiy, Amir Temur, Chingizxon, Sulton Sulaymon, Hanniballar haqida roman va asarlar bitgan shu bilan birgalikda boburiylar

sulolasining asoschisi shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur haqida "Babur the tiger" (Bobur-Yo'lbars) tarixiy avtobiografik romani ham yozgan. Ushbu roman o'zbek tiliga tarjimon G'ofurjon Sotimov tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirilgan.

Tahlil va natijalar. Badiiy asarlardagi tasviriy so'zlar bo'yicha A.Boboniyozov "Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida tasviriy vositalar va til badiiyati" mavzusida nomzodlik ishida "yozuvchi tili orqali asar qahramonlari harakterini ochish va u orqali ifodalangan ma'noni yoritish bilan birgalikda tasviriy vositalarda qo'llanilgan so'z hamda iboralaridagi yozuvchi mahoratini aniqlash kabi asosiy vazifalarni amalga oshirishni maqsad qilgan" [12]. Olim "odamlar va buyumlar jonli qilib tasvirlash uchun so'z har bir jumla o'z o'rnida ixcham, yozuvchi aytmoqchi bo'lgan ma'noga xizmat qilmog'i kerak" [12] deya bejizga aytmagan. Agar asarda inson, narsa, tabiat va hayvonot tasviri yuqori darajada ifodalansa, har qanday kitobxon uni sevib o'qiydi. Bundan tashqari, olim o'z tadqiqotida asarda mavjud tasviriy vositalarni alohida-alohida tadqiq qilishga harakat qilgan. U "O'tkan kunlar" romanida uy-ro'zgor buyumlariga berilgan tariflarni tahlil qiladi. Shunda, kundalik hayotda ishlatiladigan piyolaga nisbatan Abdulla Qodiriy "qoni qochgan" metaforasini ishlatganligiga alohida e'tibor qaratgan. Olim Qodiriy bu metaforizatsiyani ishlatishdan maqsadi "piyolalarni ancha eskirib ketganligini tasvirlash" [12] deya ta'kidlaydi. Xalqimizda, kishilar tasvirida ham "qoni qochgan" degan iborani qo'llaydi. Bu o'rinda "qoni qochgan" deya tasvirlangan inson "zaif, kuchsiz va charchagan" degan sifatlarini o'zida mujassam qiladi. Qo'laversa, ushbu birikma orqali o'quvchi pragmatik jihatdan kuchsiz insonni tasavvur qiladi. Demak, Abdulla Qodiriy piyolalarni "qoni qochgan" istioraviy so'z birikmasi bilan ifodasi to'g'ri va aynan o'quvchi tasavvurini boyitishga xizmat qilgan. Ya'ni, "sinishga moyilligi bor" deya ma'no anglatadi.

"Boburnoma" matni va uning ingliz tiliga qilingan tarjimalarda tasviriy vositalarning o'zaro qiyosiy tahlili berilgan bunda "Boburnoma" matnida harakterlar tavsifida ko'plab epitet, qarshilantirish, metafora, metonomiya kabi tasviriy vositalarni uchratamiz" [9] deya ta'kidlaydi D.Xoshimova. Albatta,

“Boburnoma” badiiy san’atlar ko’p uchraydi. Ishda memuar asar aslyatida tasviriy vositalar aniqlab, ularni ingliz tiliga tarjima qilingan bir necha variantlari bilan monografik planda tadqiqot etilgan.

Tadqiqotlarda badiiy tasvir vositalar asosiy obyekt bo’lib, lingvistik, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik yo’nalishida qilingan ishlarda alohida ahamiyatga ega. Xususan, M.Karimovning “Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanining inglizcha tarjimalarida tasviriy vositalarning lingvokulturologik tadqiqi” [10] va X.Turaxonovanning “Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni nasriy bayoni inglizcha tarjimasida badiiy tasviriy vositalarning lingvopragmatik tadqiqi” [11] mavzularidagi ishlarda tasviriy vositalar tadqiqiga alohida e’tibor berilgan. M.Karimov tadqiqot ishida tasviriy vositalar to’g’risida: “Kitobxon yoki tinglovchidagi hissiyotlarning junbushga kelishida tezlashtiruvchi vosita rolini bajaradi, yozuvchiga ko’makdosh bo’ladi” [10], deb keltiradi. Demak, badiiy adabiyot yozuvchi mehnat mahsuli sifatida o’quvchiga adabiy hissiyot bera olishi uchun albatta tasviriy vositalar ham muhimdir. Tadqiqotchi “O’tkan kunlar”da aniqlangan sinekdoxa, o’xshatish va kinoyalarni romanning inglizcha tarjima variantlari bilan qiyosiy tahlil torgan holda, ularni tarjima tili uchun ma’lum bo’lgan lingvomadaniy tomonlariga ham alohida e’tibor qaratgan. X.Turaxonova esa mumtoz adabiyotga tegishli va majoziy birliklarga boy bo’lgan “Lison ut-tayr” dostoni hamda uning tarjimasi yuzasidan tadqiqot ishini amalga oshirgan.

Rus olimlari tomonidan qilingan badiiy tasviriy vositalar to’g’risidagi ishlar ham alohida ajralib turadi. Bir badiiy san’at yaratishda boshqasining o’z o’rni mavjud. Bu hodisa ko’pincha tabiat tasviri yoki jonsiz narsalar tilga kirganda aynan namoyon bo’ladi. Ingliz tilidagi badiiy matnda stilistik vosita, antiteza ni diskurs parametrida o’rgangan E.V.Fursova “bazi bir: metafora, metonimiya, o’xshatish kabi badiiy san’atlar murakkab antiteza yaratishga xizmat qiladi” [6] deb beradi. O’zbek tilining izohli lug’atida “antiteza” so’zi “qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, obrazlarni qarama-qarshi qo’yishdan iborat uslubiy yo’l” [14] sifatida keltirilganligi o’quvchiga matnda bir-biriga qarama-qarshi aynan yoki kontekstual antonimlar qo’llash orqali fikrni ifoda qilish ekani tushuniladi. Asarlarda har doim ham antiteza vositasida ifodalangan metaforani aniqlash qiyin. Shu o’rinda “Bobur-Yo’lbars” romanidan olingan bir jumalani tahlilga tortsak.

H.Lemb:

A grizzled lord, Kasim, the master of the Household, paid little attention to hand to hand fighting, saying that the shepherd David had more sense than the swordsman Goliath and that Babur must learn to get in the first disabling blow to an enemy with a hard-spined arrow [7].

H.Lemb tomonidan berilgan “disabling blow” birikmasi istorani hosil qilgan. Nufuzli ingliz tilidagi izohli lug’atda birikma tarkibidagi ikki so’z quyidagicha keltiriladi: “disabling-if a condition or injury is disabling it affects your body or your brain and makes you unable to use it properly” [8] va “blow-a hard hit from someone’s hand or an object” [8]. Demak, ingliz tilida “disabling” leksemasi biror bir shikastlanish yoki tibbiy holat uchun ishlatiladi. Bu so’z “blow” bilan birikkanda esa, aslyat tilida istoraviy tushuncha hosil qilgan. Ushbu jumla so’nggisida berilgan “hard-spined arrow” leksik birligi ham berilgan. Ingliz tilida “hard” va “speed” leksemalari o’z ma’nosida ishlatib bo’lmaydi, chunki aynan tarjimasi “qattiq harakatlanadigan” deya tarjima qilish imkonsiz. Bunday tarjima o’zbek o’quvchisi uchun tushunarsiz ham bo’ladi. G’.Sotimov bu metaforaviy birliklarni qanday tarjima qilgan ekan.

G’.Sotimov:

Boburning yana bir sochlari oqara boshlagan ustozi Qosimbek qavchin bo’lib, u saroyda eshik og’asi vazifasida edi. U Boburdan raqibga qarshi beriladigan zarbaning nihoyatda katta kuch bilan berilishini talab qilardiki, natijada raqib o’sha kamon o’qining zarbidanoq qulab tushsin [5].

O’zbek tarjimoni “disabling blow” metaforasini o’quvchi uchun tushunarli bo’lgan “kata kuch” jumlasini bilan ifodalagan. Buni tarjimada metaforani qayta yaratish desa bo’ladi. Mutarjim aslyat tilida berilgan “disabling blow” birikmasini aynan “jarohatlaydigan shamol” tarzida o’gira olmas edi. Qolaversa, ingliz tilidagi parchada berilgan “hard-spined arrow” so’z

birikmasini ham o’zgacha tarzda tarjima qilgan. Ya’ni, tarjimon “kamonning o’qi zarbi” deya bergan. Umuman olganda, jumla tarjimasida metafora mavjud emas, lekin birlik davomida berilgan “qulab tushsin” birikmasi bilan ifodalansa, tarjimada aslyat ma’nosini muholaga san’ati vositasida berilganligi aniq bo’ladi. Xususan, kamon o’qining zarbi bilan insonni qulatish, yiqitish birmuncha imkonsiz. Tarjimon o’q kamonkash tomonidan o’q katta kuch bilan berilganligi va uning zarbasi borib tekkan dushman qulab tushushini o’quvchiga singdirishga uringan. Bu orqali qahramonni baquvvat, kuchli ekanligini urg’ulash bo’lsa ajab emas.

Badiiy tasvir vositalari matnda ma’lum bir funksiyalarni ifodalaydi. “Tasviriy vositalar uchta: ekspressiv, emosional va baholovchi funksiyalari mavjud” [4]. Olim ko’plab tasviriy vositalarni aynan qanday funksiyalarni bajarishi borasida ham ahamiyatli tadqiqotni amalga oshirgan. Qolaversa, ishda ba’zi badiiy san’atlar yuqorida keltirilgan barcha funksiyalarni bajarishi haqida ham ma’lumotlar berilgan. Xususan, metafora, metonimiya, epitet va giperbola barcha uchta funksiyalarni bajarishini alohida ta’kidlaydi [4]. Shundan ham bilish mumkinki, badiiy tasviriy vosita ko’lam doirasi juda keng va katta bo’lgan yo’nalishdir.

G’arbda tasviriy vositalar xususida ham bir nechta tadqiqot ishlar qilingan. Xususan, N.Gudmen, A.Gargani, M.M.Lokhart, A.Ortoni, J.T. Kirbi, M. Blek, J.R. Serl, J.Lakoff, M.Jonson, R.W.Gibbs va boshqa olimlar metafora, o’xshatish, shaxslantirish kabi badiiy tasviriy vositalar xususida monografik tadqiqotlar olib borgan.

Badiiy tasviriy vositalar tashbeh va metafora bir-biriga o’xshash birlik hisoblanib, doimo tadqiqotchilarning ilmiy tortishuvlariga sabab bo’lgan. Tashbeh (o’xshatish) badiiy san’atini bolalar adabiyotidagi qiyosiy tahlil qilgan Adam Gargani “o’xshatish ritorika nazariyasida eng asosiy troplardan biri sifatida qabul qilinadi” [3] deya keltiradi. Bilamizki, tashbeh tarkibida metaforadan farqli tarzda bir necha qo’shimcha yoki so’zlar vositasida yasaladi. Ular “-dek”, “-day”. “kabi”, “singari”, “o’xshab” kabi so’zlar vositasida o’xshatish san’ati hosil qilinadi. Agar, ushbu so’zlar tushirib qoldirilsa, jumla metafora vositasida berikkan hisoblanadi. Shuning uchun, “metafora” bazan olimlar tomonidan “yashirin o’xshatish” nomi bilan ham yuritiladi. Shu o’rinda A. Garganidan misol keltirish o’rinli.

Achilles is a lion. (Metaphor)

Achilles is like a lion. (Simile) [3]

Mazmuni:

Axilles sher. (metafora)

Axilles sher kabi. (o’xshatish) (Sh.I.)

Yuqoridagi ikki jumla bir-biridan yagona “like” (kabi) leksemasi bilan farqlanmoqda. Umuman olganda, ular anglatayotgan tushunchalar pragmatikasida ham farq bor. Ya’ni, birinchi misolda berilgan “a lion” (sher) yovvoyi hayvonining qo’rqmas va janglardagi shafqatsiz xarakteri vaqtinchalik “Troya” tragediyasining qahramoni Axillesni tasviri uchun omonatga olingan. Demak, Axilles jang paytida qo’rquvni his qilmasligi holati va dushmanlarga nisbatan shafqatsizlik holati “sher” leksemasi vositasida keltirilgan. Ikkinchi misol esa, umumiylikga tasviriy ifodaning qiymati unchalik ham yuqori emas. Shuning uchun, Aristotel o’zining “Ritorika” nomli ilmiy risolasida “o’xshatish metaforaga qaraganda mazmunsizroq, chunki u bilan ifodalangan jumla uzun hamda o’xshatishda inson metaforani anglashda foydalangandek inson aql-zakovatini sinamaydi” [2] deya ta’kidlaydi. Bunday qarash boshqa olimlar tomonidan ham ilgari surilgan. Bizningcha ham metafora orqali ifodalangan jumla o’xshatishga qaraganda o’zining tasviriyiligi hamda badiiyiligi bilan alohida ajralib turadi.

Xulosa va takliflar. Tasviriy vositalarni tarjimada ifoda qilish masalasi doimo tarjimashunos tadqiqotchilar tomonidan muhokamatalab mavzu sifatida qolavergan. Buning sababi, ko’pgina tasviriy vositalarning tarjima qilinayotgan tilda aynan ekvivalenti mavjud emas. Y.I.Ritsker tomonidan bildirilgan quyidagi: “agar metaforani ekvivalent yoki kalkalab tarjima qilinishga imkon bo’lmasa, tarjimon aynan jumla bergan ma’nosini bir necha boshqa variantlardan birini tanlashi mumkin bo’ladi” [1] degan fikri bunga yaqqol isbot. To’g’ri, yuqoridagi jumla faqatgina metafora keltirilgan xalos, lekin bu holat

boshqa tasviriy vositalar tarjimasida ham kuzatiladi. Misol uchun, bir xalq uchun qo'rqmaslik timsolini bildirgan hayvon boshqa millat uchun tamomila o'zgacha ma'no anglatishi mumkin. Bu

tarjimonlar doimo duch keladigan holat. Shuning uchun, mutarjimlar badiiy tasvir vositalarini tarjimasida ko'pincha muqobil leksikadan foydalanish holatlari kuzatiladi.

ADABIYOTLAR

1. Рецкер Я.И. Пособие по переводу с английского языка на русский язык. – Москва, 1982. Б. 252.
2. Kirby J.T. Aristotle on metaphor//American Journal of Philology, Volume 118, Number 4 (Whole Number 472), Winter, 1997, P. 675.
3. Gargani A. Poetic comparison how similes are understood. – School of Arts and Media, University of Salford, Salford, UK, 2014. p. 224.
4. Иванова Е.В. Когнитивный аспект перевода стилистической конвергенции. Кандидата филологических наук. Автореферат – Уфа, 2006. Б. 28.
5. Lemb H. Bobur-Yo'lbars. (G'.Sotimov tarjimas). – Toshkent: O'zbekiston, 2015. B. 296.
6. Фурсова Е.В. Дискурсивные параметры стилистического приема антитезы (на материале английской художественной текста). Кандидата филологических наук. Автореферат – Москва, 2008. Б. 29.
7. Lamb H. Babur, the tiger: The first of Great Muguls. - USA, New York, 1961. P. 260.
8. Macmillan English Dictionary for Advanced Learners. International Student Edition. Macmillan Publishers Limited, 2006. P. 1692.
9. Хошимова Д.М. “Бобурнома” матнидаги тасвирий воситаларнинг инглиз тилига таржималари тадқиқи. Филол.фан.док. ...дисс. Тошкент, 2018. – Б. 261.
10. Karimov M.M. Abdulla Qodiriy “O'tkan kunlar romanining inglizcha tarjimalarida tasviriy vositalarning lingvokulturologik tadqiqi (sinekdoxa, o'xshatish va kinoya misolida). Filol.fan.fal.dok. ...diss. – Andijon. 2023, 175 b.
11. To'rahanova X.M. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni nasriy bayoni inglizcha tarjimasida badiiy tasviriy vositalarning lingvopragmatik tadqiqi (metafora, metonimiya, mubolag'a misolida). Filol.fan.b.fals.dok. ...diss. – Andijon. 2024, 137 b.
12. Бобониёзов А.Ю. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романида тасвирий воситалар ва тил бадийати. Филол.фан.номз...дисс. Тошкент, 1995. – Б. 134.
13. Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 154.
14. <https://izoh.uz/word/antiteza>